



KONSTITUTSIYA ERKINLIGIMIZ KAFOLATI

Prof. S.A.Hashimova

O'zJXU

e-mail:sabohat15@mail.ru

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahon qonunshunosligi amaliyotida eng xalqchil va mukammal huquqiy hujjat sifatida e'tirof etilib kelmoqda. Respublikamiz Konstitutsiyasi hozirgi globallashuv jarayonlariga tez moslasha oladigan, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolarning taraqqiyotiga qarab mukammallashib borayotgan huquqiy hujjatdir.*

Kalit so'zlar: *obod va farovon hayot, ustuvor vazifalar, huquqiy davlatlar, oliy qadriyat, islohotlar, huquqiy-tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-huquqiy bilimlar.*

Mustaqillik yillarida davlatimizning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy hayotida katta o'zgarishlar kuzatildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimiz uchun obod va farovon hayot barpo etishdir. O'z navbatida jamiyatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiyaning mohiyatini biladigan va unga amal qiladigan shaxsni shakllantirish masalasi ham ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

O'zbekiston bugungi kunda taraqqiy etib borayotgan davlatlar qatorida dunyo xamjamiyatida o'z obro'-e'tiborga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayonni yanada rivojlantirishda jamiyatimiz fuqarolari, xususan yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ma'lumki davlatimiz o'z oldiga erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan. Bu maqsadni amalga oshirishda davlat Konstitutsiyaga asoslanib ish olib boradi. Konstitutsiyaning inson va jamiyat taraqqiyotida, huquqiy davlatni barpo etishda katta o'ringa ega ekanligini hisobga olib, inson hayoti va kelajagini yaratishda Konstitutsiyaning me'yorlarini, uning kundalik turmushdagi ahamiyatini anglab yetish talab etiladi. Inson hayotda erkin faoliyat olib borishda Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur bilishi, Konstitutsiya normalarini o'rganish bilan, o'zining huquqiy bilimlarini o'stirishga katta e'tibor berishi zarurdir. Shuni ta'kidlash kerakki, Konstitutsiya ozod Vatanimizning demokratik tizim ifodasini aks ettiradi. Uni bilish, unga amal qilish mamlakatimizni kuchli huquqiy davlatlar qatorida rivojlanish garovi hisoblanadi. Konstitutsiyani bilmagan inson o'z qonun va burchlarini ham amalga oshira olmaydi. Konstitutsiyaning normalarini chuqur anglash, insonga baxtli kelajakni ta'minlash bilan birga, insonning hayotda oliy qadriyat etib ulug'lanish imkoniyatini yaratadi.

Konstitutsiyaning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishi, inson va uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan .



Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan borishda inson erkinligiga, jamiyat va davlatning birligiga insonning tutgan o'rnini yuksak baxolashga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Qolaversa, inson va jamiyat hayotida huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi bugungi kunda g'oyat muhimdir. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ong, qonuniylikni, qonunni takomillashtirish va huquqiy tajribani muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarini qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatni bir turi sifatida ko'riladi. Jamiyatni huquqiy madaniyati shaxs erkinligiga, xavfsizligiga, inson huquqini ta'minlash, va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo'ladi. Shunga asosan jamiyatda huquqiy madaniyatni o'stirish bilan, yoshlarning keng qatlamlarini, hususan uyushmagan yoshlarni bandligini ta'minlash, ularni katta maqsadlar sari yetaklash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, yoshlar orasida turli jinoyatlar va nizolarning ham oldini olish mumkin. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatini uzviy tarkibiy qismi bo'lib, bu faoliyat konstitutsiya va huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uni madaniyatiga mos kelib, shaxs va jamiyatni doimiy huquqiy jihatdan boyitish imkonini beradi. Shubhasiz, shaxsning yuksak madaniyati ham taraqqiyotni ta'minlashdan iboratdir.

Asosiy Qonunimizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart deb" ta'kidlangan. Ushbu moddadan kelib chiqib insonni jamiyatda tenglik prinsipiga amal qilib yashashga targ'ib etish lozim.

Mustaqilligimizni mustahkamlash ham ko'p jihatdan bir-birimizga bo'lgan ishonchimiz, o'z huquqlarimizni xurmat qilishimiz va yorug' kelajakka bo'lgan qat'iy intilishimizga bog'liq. Birinchi Prezidentimiz aytganidek: "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir". Ana shunday jamiyatda Konstitutsiya insonlarning mustaqil faoliyatida huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi paytda yoshlarning huquq hamda erkinliklari bo'yicha ta'lim-tarbiya ishlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda huquqiy madaniyat va huquqiy ongga bo'lgan talabning kuchayib borishi, yoshlarning konstitutsiyaviy va huquqiy bilimlarini oshirish, qolaversa o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan yosh avlodni tarbiyalash masalasiga ham katta e'tibor berish zarurdir. Jamiyatning yetakchi kuchi hisoblangan yoshlarning hayotida Konstitutsiya va qonunlarni ahamiyatini oshirib borish jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonlari bilan uzviylikda olib borish, ularning faoliyatida ma'naviy-axloqiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishni ko'zda tutish lozim.



Yoshlar bugungi murakkab hayotda turli muammolarni ijobiy hal etishlarida, ularni erkin fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zamin yaratish lozim. Respublikamiz yoshlarining huquqiy va ijtimoiy faolligi, erkin va mustaqil fikrlash madaniyatini oshirishda ilg'or mamlakatlarning ish tajribalarini o'rganish, ommaviy axborot vositalarining siyosiy-huquqiy ma'lumotlarga oid keng axborotlarni berib borish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun bunday yoshlarga ta'lim jarayonidan tashqari ijodiy muhit yaratish, o'quv va ilmiy-tarbiyaviy faoliyatlarini tahlil qilish va o'rganish, konstitutsiyani, ijtimoiy-huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish lozim. Konstitutsiyani o'rganish va yoshlar hayotiga tadbiiq etishni ta'lim-tarbiya muassasalari bilan birga madaniyat, san'at, adabiyot, sport kabi soxa va tashkilotlar imkoniyatlaridan ham foydalanish kerak. Mazkur ishlar orqali yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni barkamol shaxs etib tarbiyalashga imkon yaratiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, davlatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar huquqiy demokratik davlatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu ishlarga yurtimizda o'sib kelayotgan har bir inson o'z xissasini qo'shishi va Vatan ravnaqi yo'lida astoydil mexnat qilishi muqaddas fuqarolik burchi ekanligini unutmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun. 20-noyabr 1991-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999 № 5.110.